

TOSHKENT EKOLOGIK SIYOSATINI YURITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Yashil” iqtisodiyot kafedrası assistenti

***“Har bir xonadon, har bir korxona tabiatni
asrashga hissa qo'shishi kerak”***

Shavkat Mirziyoyev

2025-yilga kelib, insoniyat tarixida eng muhim savol yana kun tartibiga chiqdi: biz Yer sayyorasini saqlab qola olamizmi? Antarktida muzliklarining tez erishi, Osiyo osmonini qoplagan tutunlar, Sahroi Kabirda kengayib borayotgan cho'l zonalar va Tinch okeanidagi plastik orollar – bularning barchasi endi nafaqat ekologlarning, balki har bir oddiy insonning kundalik tashvishiga aylangan. Bugun global iqlim o'zgarishlari faqat geografik yoki statistik masala emas – bu bizning nafas olayotgan havomiz, ichayotgan suvimiz va kelajakdagi farzandlarimiz hayoti haqida. Havoning ifloslanishi dunyo bo'yicha har yili millionlab insonlarning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, tabiat resurslarining cheksiz ekspluatatsiyasi butun ekotizimlarni halokat yoqasiga olib kelmoqda. Afsuski, ushbu muammolar bizning O'zbekistonga ham kirib kelmoqda. Bu tendensiya ayniqsa poytaxt Toshkent shahrida, qum bo'ronlari va havodagi PM2.5 ko'rsatkichi tavsiya etilgan miqdordan bir necha marotaba yuqoriligida aks etmoqda.


Ekologik barqarorlik mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U aholi salomatligiga, mehnat unumdorligiga va resurslardan foydalanish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2 yil davomida AQShning Boston shahrida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, havo sifatini yaxshilash hududdagi ishchilar mehnat unumdorligini 60% gacha oshirishi mumkin. Bundan tashqari, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) 2021-yilda e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, atrof-muhitni asrash uchun sarflangan har bir dollar sog'liqni saqlash xarajatlaridan o'rtacha 10 dollar tejab qolish imkonini beradi.

Aynan shu omillarni hisobga olgan holda Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va yashil infratuzilmani kengaytirish borasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning “O'zbekiston–2030” strategik yo'nalishlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va zararli chiqindilar miqdorini kamaytirish eng muhim ustuvorliklar sifatida belgilangan. Ayniqsa, Toshkent shahri zamonaviy ekologik boshqaruv tizimini joriy etib, “yashil tadbirkorlik”, qayta ishlash infratuzilmasi va “eko brend”larni rivojlantirish orqali butun respublikaga namuna bo'lmoqda. 2025-yildan boshlab poytaxtda

bioparchalanuvchi paketlarga o'tish, plastik mahsulotlarning zararli kimyoviy tarkibini cheklash, "yashil belbog'lar" va tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy qilish bo'yicha keng qamrovli choralar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, "Eko" mahsulotlar ro'yxatini tuzish, barqarorlik reytingi tizimi va ekologik tadbirkorlar uchun soliq yengilliklari joriy qilinayotgani Toshkentning yashil iqtisodiyot sari qat'iy qadamlarini namoyon etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonning issiqxona gazlarini kelgusida 35 foizgacha kamaytirish orqali mamlakat o'z oldida jiddiy maqsadlar qo'yganidan dalolat beradi.

Ushbu islohotlarni davomli qilish uchun, 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan, 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Hukumat yilga oid ustuvor yo'nalishlar asosida davlat dasturini ishlab chiqishi belgilandi. Bu dasturning asosiy yo'nalishlari sifatida "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini tejash, ko'kalamzorliklarni keskin oshirish, Orolbo'yi fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilarni boshqarish muammolarini hal etish hamda, eng asosiysi, aholining sog'lig'ini mustahkamlash masalalari ajratib ko'rsatildi. Bunday o'zgarishlar o'z-o'zidan masalaga kompleks yondashuvni talab qiladi. Nafaqat loyihalarning tashkil topish strategiyasi, balki kelgusidagi islohotlar uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, amaldagi va kelgusi loyihalarni moliyalashtirish uchun muqobil manbalarni topish muhim hisoblanadi. Ana

Toshkent ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omilni belgilang



shunday kompleks yondashuvlardan biri insonlar xulq-atvoriga asoslangan siyosat bo'lib, jahon tajribasida bir qator mamlakatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Niderlandiya ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan.

Yuqorida aytilgan maqsadlarga erishish va muammolarni har tomonlama tahlil qilish uchun innovatsion yondashuv asosida tadqiqot olib borildi. Toshkent shahrida


amalgga oshirilgan tadqiqotda jami 308 nafar ishtirokchi qatnashgan bo'lib, ularning 207 nafari (67,2%) erkaklar va 101 nafari (32,8%) ayollarni tashkil etgan. Respondentlarning o'rtacha yoshi 29 yil bo'lib, ularning o'rtacha daromadi 3,2 mln so'mni tashkil etgan. Jami 142 nafar respondent (46,1%) atrof-muhit ifloslanishining asosiy omili energiya ishlab chiqarish uchun mazutdan foydalanadigan korxonalar ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, 89 nafar respondent (28,9%) ifloslanishni avtomobillar bilan bog'lagan va 48 nafar respondent (15,6%) aholi sonining ortishini asosiy sabab deb hisoblagan. Qolgan 29 nafar respondent (9,4%) esa atrof-muhitning ifloslanishiga boshqa omillar sabab bo'lgan deb hisoblagan.

Demak, aholi fikriga ko'ra, hozirda an'anaviy yoqilg'idan foydalanish shahar ekologiyasiga eng katta zarar yetkazmoqda. Ko'pgina xorij davlatlarida ushbu muammoga javoban qayta tiklanuvchi muqobil energiya manbalariga, xususan bioyoqilg'iga talab ortmoqda. Lekin, ma'lumki, har qanday islohot ma'lum miqdorda xarajat talab etadi. 2025-yilda esa byudjetdan samarali foydalanish tendensiyalari yuzaga kelgan paytda, ushbu moliyalashtirish jarayoniga aholining o'zini jalb etish nafaqat byudjetga qo'shimcha yuk tushishidan ozod etadi, balki aholining ushbu loyihalarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shu sababli yana respondentlarga murojaat etildi: agar havo ifloslanishini kamaytiradigan bioyoqilg'i oddiy yoqilg'idan 50 foiz qimmatroq bo'lsa, uni qo'llab-quvvatlagan bo'larmidingiz? Barcha so'ralganlarning 213 nafari "ha", 95 nafari esa "yo'q" deb javob berdi. Bu shuni anglatadiki, ko'pchilik — taxminan har 10 kishidan 7 tasi — ekologik toza energiyani, hatto u qimmatroq bo'lsa ham, qo'llab-quvvatlashga tayyor ekan. Eng e'tiborlisi, tadqiqotga ko'ra, odamning daromadi qancha bo'lishidan qat'i nazar, agar u sog'lig'ini muhim deb hisoblasa, ekologik loyihani qo'llab-quvvatlash ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday odamlar, sog'lig'iga befarq odamlarga qaraganda, loyihaga rozilik bildirish ehtimoli taxminan 3 barobar ko'proqdir.

Natijalardan ko'rish mumkinki, aholi sog'lig'ini asrashga qaratilgan subsidiya va imtiyozlar taklif etilishi, Toshkent kabi shaharlarda qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish bo'yicha loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, sog'liq uchun ogohlantirishlar, shaxsiy ma'lumotlar yoki xavf darajasini ko'rsatadigan vositalar kabi xulq-atvorga ta'sir qiluvchi vositalardan foydalanish kerak. Toshkent shahri ekologiyasiga avtomobillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Avtomobil filtrlari, transport vositalaridan chiqayotgan eng zararli gazlar va chang zarrachalarni ushlab qoladi. Ular havoga chiqadigan karbonat angidrid, azot oksidlari va PM2.5 zarrachalarini sezilarli darajada kamaytiradi. Texnik jihatdan bunday filtrlar mashinadan chiquvchi zararli moddalarni 55–60% gacha kamaytiradi. Bu esa shahar havosini tozalash va sog'liq uchun xavflarni kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Lekin, muammo shundaki, haydovchilar buni har doim ham ijobiy qabul qilishmaydi va ko'pincha minimal narxda filtr sotib olishga harakat qilishadi. Shu

Avtomobilingizga filtr o'rnatish uchun necha pul to'lashga rozisiz?



sababli, respondentlardan filtrni tanlashdan oldin o'zlari sotib olgan mashina narxi haqida o'ylash tavsiya qilindi. Oqibatda, respondentlarning 58 foiz qismi samaraliroq filtr sotib olishga ixtiyorlik bildirishdi.

So'rovnoma qatnashuvchilarga avtomobillarining narxi eslatilganda, ular qimmatroq filtrni tanlashga ko'proq moyillik bildirdilar. Bu shuni anglatadiki, odamlar qaror qabul qilishda alohida xarajatlarni emas, balki umumiy summani hisobga oladilar. Bunday vaziyatda filtr ortiqcha xarajat sifatida emas, balki mashinaning muhim qismi deb qaraladi. Demak, oddiy bir eslatma insonning ekologik tanloviga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, odamlarning daromadi ortgani sari ular ekologik muammolarga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Biroq iqtisodiy rivojlanishning ilk bosqichlarida bu holat har doim ham kuzatilavermaydi. Shu bois biz tadqiqotda fuqarolarning daromadiga qarab atrof-muhitga qancha mablag' ajrata olishini ham o'rgandik. Tadqiqot natijalari kutilmagan holatni ko'rsatdi: o'rtacha oylikdan kam daromadli guruh ekologik islohotlar uchun o'rtacha 676 ming so'm, o'rtacha oylikdan yuqori daromadli guruh esa 489 ming so'm ajratishga tayyor ekanini bildirdi. Bu esa, atrof-muhit haqida qayg'urish faqat daromadga bog'liq emasligini, balki boshqa omillar — masalan, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatmoqda.

Toshkent shahridagi ekologik vaziyatni yaxshilash — bu faqat texnologik o'zgarishlar yoki davlat siyosatining natijasi emas, balki har bir fuqaroning kundalik odatlari va qarorlariga bevosita bog'liq. Natijalar shuni ko'rsatdiki, odamlar sog'lig'i haqida qayg'urgani sayin, ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lishadi. Bu esa hukumat va mutasaddi tashkilotlarga oddiy, ammo ta'sirli vositani — **xulq-atvorga asoslangan siyosatni** qo'llash zarurligini ko'rsatadi.